

ONA TILI TA'LIMIDA OTNING O'QITILISHI

Tog'aymuratova Zuhra A'zamat qizi

ToshDO 'TAUning 3-kurs talabasi

Zuhratogaymurodova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ot (ism) so'z turkumini o'qitishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari, o'qitish bosqichlari hamda amaliy topshiriqlar tahlil qilinadi.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations, methodological approaches, teaching stages, and practical tasks of teaching the noun phrase in primary grades.

Kalit so'zlar: ot, so'z turkumi, grammatik tahlil, topshiriq, metodika, o'quvchi, fan, boshlang'ich ta'lim.

Keywords: noun, phrase, grammatical analysis, task, methodology, student, subject, primary education.

KIRISH

Tilshunoslikda ot eng muhim so'z turkumlaridan biri bo'lib, u shaxs, predmet, hodisa va tushunchalarni bildiradi. O'zbek tili darslarida otni o'rgatish o'quvchilarning grammatik tafakkurini shakllantirish, savodxonligini rivojlantirish va ifodali nutqini boyitishda asosiy omillardan hisoblanadi. Shu bois, otni o'qitishda metodik yondashuvlar va amaliy mashqlarning o'rni beqiyosdir.

ASOSIY QISM

O'quvchilarga ot tushunchasi haqida umumiy tasavvur berishda avvalo uning quyidagi belgilariga e'tibor qaratiladi.

Ot so'z turkumi kim? nima? savollariga javob bo'lib, predmet, shaxs yoki tushuncha nomini bildiradi. Ko'plik (-lar), egalik (-im, -ingiz), kelishiklar (-ni, -da, -dan)qo'shimchalari bilan kelib, gapda asosan ega yoki to'ldiruvchi vazifasida

keladi.

Ot soʻz turkumini oʻqitish oʻquvchilarga ular haqida tushuncha berish turli bosqichlarda amalga oshadi. 1. Otni aniqlash (savollar asosida). 2. Otlarning turlariga koʻra: aniq otlar (daryo – Nil), mavhum otlar (sevgi, baxt), jonli va jonsiz otlar. 3. Qoʻshimchsiga koʻra: (koʻplik, egalik, kelishik). 4. Otlarning gapdagi vazifasi koʻra.

Oʻquvchilarga turli usullar orqali oʻqitish mumkin. Taqqoslash va guruhlash: Otni boshqa soʻz turkumlari bilan solishtirib, farqlash. Jadval va sxemalar asosida tushuntirish. Yozma va ogʻzaki tahlil mashqlari. Didaktik oʻyinlar: “Kim? Nima?” oʻyini, “Otni top!” singarilarni bunga misol qilish mumkin.

1-topshiriq. Quyidagi soʻzlardan otlarni ajratib yozing. Har biriga “kim?” yoki “nima?” savolini qoʻying:

2-Bahor, yozadi, kitob, oʻqituvchi, qizil, yugurdi, doʻstlik.

2-topshiriq. Quyidagi gaplardan otlarni toping va ularning gapdagi vazifasini aniqlang:

1. Bolalar bogʻda oʻyin oʻynayapti.
2. Kitob doʻkondan sotib olindi.
3. Onam doʻppi tikdi.

3-topshiriq. “Nima?” degan savolga javob boʻladigan 5 ta jonsiz ot yozing va ularni koʻplik shaklga keltiring.

4-mashq. Soʻzlarga mos kelishik qoʻshimchalarini qoʻshing:
maktab (dan), daftar (ni), doʻst (ga), uy (da)

Oldin qayd qilinganidek, mashq oʻquv topshirigʻi asosida oʻtkaziladi. Oʻquv topshirigʻi shartiga kiritilgan turli istilohlarga rioya qilib, mashq uchun zaruriy bilimlar tanlanadi. Mashq qilish uchun zaruriy bilimlarni esga tushirish, tanlash murakkab psixik hodisa boʻlib, u bolalarda xotira, tasavvur, fikrlashni tarbiyalaydi. Masalan:

1-topshiriq. Matnni oʻqib (...) otlarni ajratib yozing.

2-topshiriq. Matnni oʻqib (...) sifatlarni ajratib yozing.

3-topshiriq. Matnni o'qib (...) fe'llarni ajratib yozing.

4-topshiriq. Matnni o'qib, otlarni birinchi, sifatlarni ikkinchi, fe'llarni uchinchi ustunga ajratib yozing.

Yuqoridagi o'quv topshiriqlari asosida mashq qilish jarayonida ishtirok etgan o'quvchi "Ot" istilohi va "Ot" to'g'risidagi o'z tasavvuri (1-topshiriq), "Sifat" istilohi va "sifat" to'g'risidagi o'z tasavvuri (2-topshiriq), "Fe'l" istilohi va "Fe'l" haqidagi o'z tasavvurlari (3-topshiriq)ga rioya qilib mashq qiladi. O'quv topshiriqlari shartida berilgan istilohlar va ularga oid tasavvurlar (hosil qilingan bilimlar) mashq qilish jarayonida faoliyat ko'rsatkichlari vazifasini bajaradi. Agar o'quvchi lingvistik terminlar va ular ostida to'plangan o'z tasavvurlari-bilimlarni qancha aniq fahmlab, turli tushunchalarni farqlay olsa, shuncha samarali mashq qilinadi.

O'quvchilarda otlar va qo'shma otlarga doir bilimlarning kamligi, ba'zi bir qo'shma otlarni yozilishida ko'p xato qilishlarini kuzatishimiz mumkin. Men tadqiqotim asosida o'quvchilarda ot va qo'shma otlar hamda ularning yozilishidagi qilinadigan xatolariga to'xtalдим. Tadqiqotimni Toshkent shahar Chilonzor tumani 281-maktabning 5-sinf o'quvchilarida olib bordim. Yozilishi murakkab otlar va qo'shma otlardan 20tasini jadval ko'rinishida kiritdim, ularni to'g'ri yozishlari uchun bo'sh joy qoldirdim. Tadqiqotimda 27 ta o'quvchi qatnashdi, shundan 8 tasi barcha so'zni to'g'ri yozgan. 7 tasi bittadan, 3tasi ikkitadan, qolgan 3tasi uchtdan xato qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki o'quvchilarda ot turkumining imlosi kamchiliklari bor.

XULOSA

Boshlang'ich sinfda otni o'rgatish nafaqat grammatik bilimlarni singdiradi, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, analiz qilish, umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tuxliyev va Yuldasheva tomonidan tavsiya etilgan metodik yondashuvlar bu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Mashqlar va topshiriqlar orqali o'quvchilar nazariy bilimni mustahkamlaydi hamda amaliy nutqda qo'llay boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xliiev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. - T., 2010.-92 b.
2. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamrayev A. “ Ona tili didaktikasi” - T., Darslik. -T.:
3. G‘.Hamroyev Ona tili o'qitishning samarali usullari. Metodik qo'llanma. - Toshkent. Bayoz. 2018. 220 b.